OCHIQLIK, SHAFFOFLIK VA XALQ BILAN MULOQOTNI TA'MINLASHDA «ELEKTRON PARLAMENT»NING O'RNI

Bobir-Mirzo To'xtayev
Milliy Universiteti mustaqil izlanuvchisi
boburmirzo.toxtayev@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqola ochiqlik, shaffoflik va xalq bilan samarali muloqotni ta'minlashda "elektron parlament" faoliyatining vazifalari va Oliy Majlis faoliyatida ushbu vazifalarning ahamiyati borasida yoritilgan. Shuningdek, bugungi kunda "elektron parlament" tizimini rivojlantirish orqali dunyo mamlakatlarida xalq bilan samarali muloqotni yo'lga qo'yish, ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash ko'rsatgichlari o'sib borayotgaligi statistik ko'rsatgichlari orqali keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: "elektron parlament", Oliy Majlis, ochiqlik, shaffoflik, xalq bilan muloqot, zamonaviy axborot-kommuniaksiya texnologiyalari, Internet, raqamli texnologiyalar, onlayn dasturlar, platformalar, ijtimoiy tarmoqlar, veb-sahifa.

РОЛЬ «ЭЛЕКТРОННОГО ПАРЛАМЕНТА» В ОБЕСПЕЧЕНИИ ОТКРЫТОСТИ И ПРОЗРАЧНОСТИ

Аннотация: В данной статье описаны задачи «электронного парламента» в обеспечении открытости, прозрачности и эффективной диалог с народом и значение этих задач в деятельности Олий Мажлиса. Также показатели налаживания эффективного диалога с народом, обеспечения открытости и прозрачности в странах мира посредством развития системы «электронный парламент» показаны через статистические показатели.

Ключевые слова: «электронный парламент», Олий Мажлис, открытость, прозрачность, диалог с народом, современные информационно-коммуникационные технологии, Интернет, цифровые технологии, онлайн-программы, платформы, социальные сети, веб-страница.

THE ROLE OF "ELECTRONIC PARLIAMENT" IN ENSURING OPENNESS AND TRANSPARENCY

Annotation: This article discusses the task of the "electronic parliament" and ensuring openness, transparency and effective dialogue with the people and the meaning of the ethical task and accountability of the Oliy Majlis. Also, through statistical indicators, indicators of establishing an effective dialogue with the people,

ensuring openness and transparency in the world through the development of the "electronic parliament" system are shown.

Keywords: "e-parliament", Oliy Majlis, openness, transparency, dialogue with the public, modern information and communication technologies, Internet, digital technologies, online programs, platforms, social networks, web page.

Kirish. Ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, xalq bilan samarali muloqotni yo'lga qo'yish "elektron parlament" faoliyatining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Mazkur vazifani amalga oshirish parlament faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, turli onlayn platforma hamda dasturlarni joriy etish orqali amalga oshiriladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, "ochiqlik" va "oshkoralik" tushunchalari to'liq sinonim sifatida qo'llanilmaydi. Ochiqlik - bu kommunikativ xususiyatga ega bo'lgan hodisa bo'lib, uning mohiyati jamiyatning barcha siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hokimiyat organlariga huquqiy kirib borish va ta'sir qilish kanallarining mavjudligi bilan ifodalaniladi. Shaffoflik esa fuqarolarni davlat organlari va tashkilotlari faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlardan qonun bilan mustahkamlangan va kafolatlangan holda foydalanish imkoniyati bilan tavsiflanadi.

Zamonaviy raqamli texnologiyalar orqali fuqarolarning siyosiy jarayonlarda qatnashishi hukumatning hisobdorligi, mas'uliyati va shaffofligi oshiradi. [1] Mazkur siyosiy ishtirokning har qanday rasmiy yoki norasmiy shakli ham qarorlar qabul qilishda ma'lum ma'noda ta'sir qiladi. [2]

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ochiqlik, shaffoflik va xalq bilan samarali muloqotni ta'minlashda "elektron parlament"ning ahamiyati borasida **A.Armit,** G.Sultanyan, T.Kingxam, **X. Dai, P. Norton, Dj. Griffit, A. Papaloi, D. Gouskos kabi tadqiqotchilar samarali faoliyat olib borishgan.**

Parlamentlararo ittifoqning 2022-yilgi dunyo "elektron parlament" hisobotida xalq bilan muloqotda "elektron parlament" institutining ahamiyati oshib borayotganligini ta'kidlanadi. Xususan, dunyodagi 100 dan ortiq davlat parlamentlari o'rtasida o'tkazilgan so'rovnomada qatnashganlarning 87 foizi yalpi majlis va qo'mita majlislarining audio va video materiallari veb-sahifada yuklab borilishini, 78 foizi esa jonli veb-translyatsiyadan foydalanishi qayd etgan. Shuningdek, so'rovnomaga ko'ra, dunyodagi parlamentlarning 50 foizi yoshlarga murojaat qilish uchun raqamli vositalardan foydalanishini va 30 foizi esa buni rejalashtirganligini bildirgan. **[3]**

Xalq bilan muloqotda Internetdan foydalanish yil sayin o'sib bormoqda. Jumladan, Parlamentlararo ittifoqning 2020-yilgi dunyo "elektron parlament" hisobotida dunyo davlatlari parlamentlarining 81 foizi mazkur jarayonda o'sishni ta'kidlaydi. Shuningdek, parlamentlarning 76 foizi elektron pochtadan foydalanishini,

43 foizi veb-sahifaga ega ekanligini va 56 foizi fuqarolar bilan muloqotda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishi bildirgan. **[4]**

Bundan tashqari mazkur hisobot parlament qo‘mitalari tomonidan ham raqamli muloqotdan foydalanish o‘sib borayotganini ko‘rsatgan. Xususan, 2020-yildan 82 foiz parlamentlarning qo‘mitalari a’zolari mazkur raqamli texnologiyadan foydalanishini ta’kidlagan bo‘lsa, mazkur ko‘rsatgich 2018-yilda 75 foizni, 2016-yilda esa 67 foizni tashkil etgan. [4]

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida tarixiylik, analiz, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, mantiqiylik, qiyosiy tahlil v usullardan foydalanildi. Mamlakatimizda ochiqlik va shaffoflikni ta’minlashda hamda xalq bilan muloqotni yo‘lga qo‘yishda parlament instituti muhim o‘rin egallab kelgan. Xususan, Westminster foundation for democracyning “O‘zbekistonda onlayn elektron parlament platformasini yaratish bo‘yicha tahliliy hisoboti”da O‘zbekistonda 2000-yildan boshlab ochiqlikni ta’minlash borasida chora-tadbirlar amalga oshirila boshlanganligi e’tirof etiladi. O‘sha yili parlament o‘z tarixida ilk bor “fuqarolar kuni”ni tashkillashtirib, tabdir orqali fuqarolarni parlamentga murojaat qilishlari imkoniyati yaratiladi. [5]

2006 yildan Oliy Majlisning rasmiy veb-sahifasi ishga tushirilib ochiqlikni ta’minlash borasida ilk sa’y-harakatlar amalga oshirila boshlangan bo‘lsada, sohada faol amaliy chora-tadbirlar 2017-yildan boshlanadi.

Tahlil va natijalar. “Elektron parlament” tizimining mamlakatimiz Oliy Majlis faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash hamda xalq bilan muloqotni yo‘lga qo‘yishidagi ahamiyati qo‘yidagi yo‘nalishlarda aks etadi:

Birinchidan, “elektron parlament” tizimining muhim tarkibiy qismi bo‘lgan parlament veb-sahifalaridagi ma’lumot bazalarini boyitish, doimiy yangilash, yangi rukn va vazifalarini ko‘paytirish orqali parlament faoliyatiga doir muhim bo‘lgan ma’lumotlar jamoatchilik uchun ochiqligi ta’minlanadi.

Xususan, bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasining rasmiy veb-sahifasi orqali jamoatchilik uchun parlamenti tarixi, Qonunchilik palatasi Kengashi tarkibi a’zolari, Qonunchilik palatasi devoni xodimlarining ro‘yxati, fraksiyalar va deputatlar guruhi, qo‘mitalar, komissiyalar va deputatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar ochiqligi ta’minlangan.

Shuningdek, qonunchilik faoliyatiga oid qabul qilingan qonunlar (1990-2018-yillar), muhokama etilayotgan qonun loyihalari, yangi qonunlarga sharhlar va deputatlarning qonun(qaror) loyihalarini qabul qilishdagi ishtiroki bo‘yicha ma’lumotlar doimiy tarzda yangilanib veb-sahifasiga yuklanib borilmoqda.

Bundan tashqari, parlamentning nazorat-tahlil faoliyatiga oid parlament so‘rovi, parlament eshituvi, hududlarda va davlat organlarida qonunlarning ijrosini o‘rganish

hamda qonun hujjatlari ijrosi yuzasidan axborotlarni eshitish bo'yicha qo'mitalar faoliyatida doir ma'lumotlar ochiqligi ta'minlangan.

Veb-sahifaga joylashtirilgan palataning choraklik va yillik axborotlari, parlament axborotnomasi, Qonunchilik palatasi ish rejasi, tadbirlar (palata majlislari, fraksiya yig'ilishlari, qo'mita va komissiya yig'ilishlari) va saylovchilar bilan uchrashuvlar jadvali parlament faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlashda muhim hisoblanadi.

Ikkinchidan, "elektron parlament" tizimining onlayn platforma va portallari orqali xalq bilan muloqot yo'lga qo'yilib, qonun va qarorlar ishlab chiqishda jamoatchilik fikri, takliflari hamda munosabatini inobatga olish ta'minlaniladi. Mazkur vazifalarga xizmat qiladigan platformalar ko'plab davlatlarda mavjud. Xususan, Avstraliya va Buyuk Britaniyada e-Consultation on bills (qabul qilinayotgan qarorlar bo'yicha maslahatlashuv); AQSH, Germaniya, Buyuk Britaniya, Avstraliya va boshqa ko'plab Yevropa davlatlarida e-Petitions (elektron ovoz berish); Buyuk Britaniya, Skandinaviya mamlakatlari, Boltiq bo'yi mamlakatlari va qator Yevropa mamlakatlarida e-Consultation on issues (biror muammoli masala yuzasidan maslahatlashuv); Avstraliya, Belgiya, Braziliya, Estoniya, Fransiya, Germaniya, Hindiston, Italiya, Niderlandiya, Norvegiya, Peru, Shveysariya, Buyuk Britaniya, Venesuela, Pokiston va Filippinda Online polls (onlayn ovoz so'rov) kabi turlarga bo'linib davlatlarda turlicha nomlanadi.

Mamlakatimizda ishga tushirilgan normativ huquqiy hujjatlarning muhokamasi portali (regulation.gov.uz) yuqoridagi maqsadlarga xizmat qiladi. Platforma orqali fuqarolarning huquq ijodkorligi jarayonidagi ishtiroki ta'minlanib, joylashtirilgan normativ-huquqiy hujjatlar borasida o'z takliflari hamda fikr-mulohazalarini bildirish imkoniyati yaratilgan. Bugungi kungacha mazkur portalga 18867 ta hujjat muhokamaga qo'yilgan bo'lib, 18719 tasi bo'yicha muhokama yakunlangan hamda 148 ta hujjat muhokamasi davom etmoqda. (2023-yil 23-mart holati bo'yicha)

Qonun loyihalarining muhokamasi platformalaridan foydalanish darajasi dunyo davlatlarida ham o'sib bormoqda. Misol uchun, **Parlamentlararo ittifoqning 2020-yilgi dunyo "elektron parlament" hisobotidagi tadqiqot so'rov natijalariga ko'ra, 2016-2020-yillarda** qonun loyihalari onlayn so'rovnomasi 10%ga o'sgan bo'lib, dunyodagi 20% parlament mazkur platformadan foydalanishini ma'lum qilgan. Qabul kilinayotgan qarorlar bo'yicha maslahatlashuv platformalaridan esa 30% dan ortiq, biror muammoli masala yuzasidan maslahatlashuv platformasidan esa 28% dan ortiq parlamentlar foydalanishini bildirgan. [6]

Uchinchidan, "elektron parlament" tizimida aholi bilan muloqot, ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash borasida muhim o'rin egallab borayotgan vositalardan biri bu – ijtimoiy tarmoqlardir.

Xususan, Parlamentlararo ittifoqning tadqiqot natijalariga ko'ra 2016-yilda ijtimoiy tarmoqlar xalq bilan muloqot qilishda radio va televideniyani ortda qoldiradi. 2018-yilda dunyodagi parlamentlarning 70% xalq bilan muloqotda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishini ma'lum qilgan bo'lsa, mazkur ko'rsatgich 2020-yilda 76% ni tashkil etgan. Ijtimoiy tarmoqlar ichida Twitterdan foydalanish ko'rsatgichi 68% ni tashkil etgan. Tarmoqlar orqali video materiallar ulashish esa 66% ga o'sgan. **[7]**



Ijtimoiy tarmoqlar orqali xalq bilan muloqot qilish amaliyoti bugungi kunda ko'plab davlatlarda tatbiq etilmoqda. Xususan, Finlyandiya parlamentining spikeri bo'lgan Paula Risikko Facebook ijtimoiy tarmog'i orqali "Spikerdan so'rang" jamoatchilik bilan onlayn muloqotini amalga oshiradi. 30 daqiqa davom etgan jonli muloqotda tarmoq foydalanuvchilari parlament faoliyati bilan bog'liq savollarini berishadi.

Xalq bilan muloqot qilishda birinchi o'rinda ijtimoiy tarmoqlar, ikkinchi o'rinda Twitter, uchinchi o'rinda video ulashuvlar, to'rtinchi o'rinda parlament TV kanallari, beshinchi o'rinda boshqa kanallar, oltinchi o'rinda parlamentning veb-sahifa TV kanali qayd etilgan. Ijtimoiy tarmoqlarning mamlakatimiz Oliy Majlisi faoliyatida ham muhim ahamiyat kasb etib, "elektron parlament" tizimini shakllantirishning zaruriy tarkibiy qismidir.

Mutahassis olim G.Strebkova ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash hamda xalq bilan muloqotni yo'lga qo'yishda "elektron parlament"ning o'rni boasida quyidagi fikrlarni bildiradi: "Elektron parlament konsepsiyasining hayotga tatbiq etilishi natijasida fuqarolar jamiyatning huquqiy hayotida faol ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ldi. Ular davlatning qonun chiqaruvchi organlari faoliyatiga oid hujjatlardan erkin

foydalanishlari mumkin. Bu vakillik hokimiyatiga ishonchning yangi darajasini yaratish imkonini beradi. Bugungi kunda ishonch birinchi navbatda ochiqlikka asoslanadi. Saylovchi o‘z vakilining parlamentda nima bilan shug‘ullanayotganini, qanday qonunchilik tashabbuslarini taklif qilayotganini, u yoki bu qonun loyihasiga qanday ovoz berishini, deputatlik faoliyati uchun byudjet mablag‘larini qanday sarflayotganini bilishni istaydi". [8]

Elektron parlament sohasida tadqiqotchi olim G. Abramenko "elektron parlament" fuqarolarni onlayn platformalar muhokasida ishtirok etishga jalb etish orqali demokratiyani rivojlantirishga hissa qo‘shadi. Shuningdek, davlat xizmatlarini samarali ko‘rsatishga ko‘maklashish, ochiqlikni ta'minlash va hukumatning boshqaruv jarayonlarida fuqarolarning ishtirokiga keng yo‘l ochadi. [9]

Xulosa va takliflar. Mamlakatimizda "elektron parlament" tizimining huquqiy asoslari, rivojlanish bosqichlari va tendensiyalari, shuningdek, Oliy Majlis faoliyatida ochiqlik, shaffoflik hamda xalq bilan muloqotda elektron parlamentning o‘rni bo‘yicha qo‘yidagicha xulosalarga kelish mumkin:

Birinchidan, mamlakatimizda "elektron parlament" tizimning huquqiy asoslari parlament faoliyatiga tegishli bo‘lgan xalqaro normativ-huquqiy hujjatlar, parlament va uning faoliyatiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etilishi bilan bog‘liq bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlar hamda "elektron parlament" tizimini shakllantirishga daxldor bo‘lgan hujjatlar guruhidan tashkil topgan.

Ikkinchidan, O‘zbekistonda "elektron parlament" tizimini shakllantirish bo‘yicha huquqiy asoslarini ishlab chiqish 2017-yildan keyin faollashdi. Xususan, 2017 – 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili" da amalga oshirishga oid Davlat dasturida belgilandi. [10]

Mamlakatimizda undan oldin qabul qilingan hujjatlar asosan, axborot olish kafolatlari va erkinligi, axborot erkinligi prinsiplari, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi, norma ijodkorligi kabi yo‘nalishlarni qamrab olgan edi.

Uchinchidan, O‘zbekistonda "elektron parlament" tizimining shakllanish bosqichlari rivojlanish tendensiyalariga ko‘ra, shartli ravishda ikki davrga ajratish mumkin. Xususan, mustaqillikdan keyingi davrdan 2016-yilgacha – bu davrda Oliy Majlis faoliyati yo‘lga qo‘yildi, ikki palatali parlamentga aylandi va Oliy Majlis palatalari faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalar joriy etila boshlandi. Jumladan, Qonunchilik palatasining rasmiy veb-sayti, Senatining rasmiy veb-sayti hamda normativ huquqiy hujjatlarning muhokamasi portali.

Keyingi davr, 2017-yildan bugungi kungacha davrda tahlil qilsak, "elektron parlament" tizimi rivojlanishida jiddiy ishlar amalga oshirildi. Xususan, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatning rasmiy veb-sahifasi yanada takomillashtirildi, turli

manbalar bilan boyitilib, yangi imkoniyat va xizmatlar yaratildi. Bundan tashqari sohada ijtimoiy tarmoq va mobil messenjerlar faoliyati keng yo'lga qo'yilib doimiy yangilab borilishi ta'minlandi.

«Elektron parlament» tizimi samaradorligini ta'minlash maqsadida Qonunchilik muammolari va Parlament tadqiqotlari instituti tasarrufidagi mening fikrim.uz saytini, jamoatchilik kengashi qoshidagi parl.uz, elektron hujjat aylanish tizimi oliy majlis.gov.uz, deputatlar portali deputat.gov.uz va qonunchilik faoliyati tizimi qonun.gov.uz kabi saytlarni Qonunchilik palatasining parliament.gov.uz saytiga integratsiya qilish lozim.

Bundan tashqari, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari, qabul qilinayotgan qonunlar to'g'risidagi axborotni fuqarolarga oddiy va tushunarli tilda yetkazib beruvchi Parl.uz Internet portalini takomillashtirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Milakovich, E. M. (2010). The Internet and Increased Citizen Participation in Government, JeDEM, 2 (1), pp. 01-09
2. Smith, S. & Dalakiouridou, E. (March, 2009). Contextualising Public (e) Participation in the Governance of the EuropeanUnion. European Journal of ePractice, No 7
3. World e-Parliament Report 2022. –p. 23 www.ipu.org
4. World e-Parliament Report 2020. –p. 37 www.ipu.org
5. Assessment for creation of e-parliament online platform in Uzbekistan. https://www.wfd.org/what-we-do/resources/assessment-report-e-parliament-wfd-uzbekistan
6. World e-Parliament Report 2020. –p. 67 https://www.ipu.org/resources/publications/reports/2021-07/world-e-parliament-report-2020
7. World e-Parliament Report 2020. –p. 66 https://www.ipu.org/resources/publications/reports/2021-07/world-e-parliament-report-2020
8. Е.Г. Стребкова – «Модернизация законодательной власти в условиях информационного общества и государства" 2013 Саратов. Вестик. - С.191-194
9. Е. Г. Абраменко – «Цифровой парламент: опыт и перспективы" Гомельский государственный университет им. Ф. Скорины. Пленарные доклады
10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармойиши, 14.02.2017 йилдаги Ф-4849-сон https://lex.uz/docs/3114480